

# "GEOGRAFIYA – KELESHEKKE KÓZ-QARAS"

atamasındağı Respublikalıq kólemdegi ilimiy-teoriyalıq konferenciya

## BO'LAJAK GEOGRAFIYA O'QITUVCHILARINI KASBGA YO'NALTIRIB O'QITISHDA UMUMIY YER BILIMIDAN TASHKIL ETILADIGAN AMALIY MASHG'ULOTLARNING AHAMIYATI

Sultanova Nodiraxon Burxonovna

Nizomiy nomidagi TDPU Geografiya va  
uni o'qitish metodikasi kafedrasi  
dotsenti

E-mail:nodiraxon1969@gmail.com

Matnazarov Akmal Ro'zimboyevich

Dotsent v/b. g.f.f.d., Ph.D.

Nizomiy nomidagi TDPU Geografiya va  
uni o'qitish metodikasi kafedrasi

Xasanboyeva Farida Otabek qizi,

Tilovova Shaxnoza Dilshod qizi

Nizomiy nomidagi TDPU "Geografiya  
va iqtisodiy bilim asoslari" ta'lim  
yo'nalishi IV-kurs talabalari

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada talabalarni kasbga yo'naltirib o'qitishda Umumiyl Yer bilimi fanidan tashkil etiladigan amaliy mashg'ulotlarning ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, Umumiyl Yer bilimi fanidan amaliy topshiriqlarni bajarishda foydalanaadigan manbalarning turlari, talabalarga beriladigan topshiriq va savollarga qo'yiladigan talablar, amaliy ishlarni bajarish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni turli manbalardan olish imkoniyati geografik kartalar misolida ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Umumiyl Yer bilimi, geografiya, geografik qobiq, atlas, geografik karta, bilim, ko'nikma, amaliy mashg'ulot, amaliy topshiriq, kasbga yo'naltirish.

**Аннотация:** В данной статье подчеркивается значение практической занятии по курсу «Общее землеведение» в профессиональной подготовке студентов. Также на примере раскрываются виды источников, используемых при выполнении практических задач по курсу «Общее землеведение», требования к заданиям и вопросам, предъявляемым студентам, возможность получения информации из различных источников, необходимой для выполнения практической работы на примере географических карт.

**Ключевые слова:** Общее землеведение, география, географическая оболочка, атлас, географическая карта, знания, умения, производственная практика, практическое задание, профориентация.

**Abstract:** This article emphasizes the importance of a practical lesson in the course "General Earth Science" in the professional training of students. The example also reveals the types of sources used when performing practical tasks in the course "General Earth Science", the requirements for tasks and questions asked of students, the possibility of obtaining information from various sources necessary for performing practical work on the example of geographical maps.

**Key words:** General earth science, geography, geographical envelope, atlas, geographical map, knowledge, skills, industrial practice, practical assignment, career guidance.

# "GEOGRAFIYA – KELESHEKKE KÓZ-QARAS"

atamasındağı Respublikalıq kólemdegi ilimiyy-teoriyalıq konferenciya

Oliy o‘quv yurtlarida bo‘lajak geografiya o‘qituvchilari uchun Umumiy Yer bilimi asosiy mutaxassislik fanlardan biri hisoblanadi. Bu fan fan orqali talabalar Yer sharining eng ustki murakkab tuzilishga ega bo‘lgan qatlami hisoblangan geografik qobiq tabiat, tuzilishi, rivojlanish qonuniyatları; geografik qobiq-litosfera, gidrosfera, atmosfera va biosferalarning uzoq vaqt davom etgan o‘zaro ta‘siri va o‘zaro uzviy aloqalarining hosilasi ekanligi to‘g‘risidagi bilim va tushunchalarini boyitish, barcha tabiiy komponentlarni majmuali (kompleks) holda tahlil qishi; geografik qobiq sferalarini uzoq vaqt davom etgan evolutsion jarayon oqibatida vujudga kelgan murakkab to‘xtovsiz rivojlanishga ega bo‘lgan yaxlit (bir butun) tizim holida o‘zlashtiriradi va mukammal geografik bilimga ega bo‘ladi [1].

“Umumiy Yer bilimi” fanning maqsadi – talabalarga geografiya fanlar tizimi, geografiya fanining rivojlanish tarixi, Umumiy Yer bilimining maqsad va vazifalari, tadqiqot usullari, Koinot, Quyosh tizimi, geografik qobiqda sodir bo‘layotgan voqeа va hodisalar, geografik qobiqni yaxlit tizim sifatida bo‘ylama va ko‘ndalang tuzilishi, geografik qobiqning tarkibiy qismlari, undagi harakatlar, ularning kelib chiqish sabablari va rivojlanish qonuniyatları, jamiyat va tabiatning o‘zaro aloqasi hamda insonning geografik jarayonlarga ta‘siri, geografik bashorat haqida bilim berish, tahlil qilishga o‘rgatish, tahliliy – tanqidiy, ijodiy va mustaqil fikr yuritish ko‘nikmalari va malakalarini rivojlantirish hisoblanadi. Buning natijasida geografik qonuniyatlarni chuqur va har tomonlama biluvchi, uning tabiiy boyliklaridan oqilona foydalanib, muhofaza qilish yo’llarini yosh avlodga yetkazuvchi geografiya o‘qituvchilari tayyorlanadi. Lekin shunga qaramasdan pedagogika oliy o‘quv yurtlarida geografiya mutaxassislari uchun tasdiqlangan o‘quv rejada Umumiy Yer bilimi uchun ajratilgan soatlar yetarli emas. O‘quv rejada nazariyaga ajratilgan soatning kamligi (60 soat) tufayli geografik qobiqda sodir bo‘ladigan voqeа va hodisalar, ularning kelib chiqish sabablari, rivojlanish qonuniyatlar va oqibatlarini talabalarga chuqur o‘rgatish imkoniyati cheklangan. Biroq, amaliy mashg’ulotlarga umumiy soatning nisbatan ko‘pi (74 soat) ajratilgan.

Binobarin, talabalar amaliy mashg’ulotlarda nazariyadan olgan bilimlarini amaliy mashg’ulot topshiriqlarini bajarish orqali mustahkamlaydi, amaliy ko‘nikmalar hosil qiladi, shuningdek ularda mustaqil va ijodiy fikrlash malakasi shakllanadi [3]. Chunki, amaliy mashg’ulotlar jarayonida talabalar darslik, o‘quv qo‘llanma, har xil adabiyotlar, globus, karta va atlaslardan foydalanib berilgan topshiriq va savollarni sinchkovlik bilan puxta bajarsalar ular uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan quyidagi malaka va ko‘nikmalar shakllanadi;

# "GEOGRAFIYA – KELESHEKKE KÓZ-QARAS"

atamasındağı Respublikalıq kólemdegi ilimiyy-teoriyalıq konferenciya

- amaliy mashg'ulotlarda globus, mavzuli kartalar va atlaslar bilan ishlab, ularni taqqoslash orqali ma'lum tabiiy geografik ob'ektlarning hozirgi holati, unda sodir bo'layotgan va bo'lishi mumkin bo'lgan jarayonlarni bilish malakasi hosil bo'ladi;

- geografik qobiq tabiiy komponentlarini bir-birlariga taqqoslab, ular ajratilgan xolda emas, balki o'zaro uzviy aloqada ekanligi, agar ularning birortasiga noto'g'ri ta'sir etilsa, u o'z navbatida boshqa tabiat elementlarining holatini o'zgarishiga sababchi bo'lishi mumkinligi haqida mustaqil ravishda xulosalar chiqarish malakasi shakllanadi;


- geografik qobiq tabiiy komponentlarining bir-birlariga bog'liqligi oqibatida undan kelib chiqadigan ba'zi hodisa sabablarini bilib oladi;

- turli xil manbalarda, hamda o'quv qo'llanmalarda berilgan jadvaldan foydalanib raqamli ma'lumotlarni tahlil qilish, kesmalar tuzish, chizma va diagrammalar chizish malakasi shakllanadi.

Umumiyl Yer bilimidan o'tiladigan nazariy va amaliy mashg'ulotlar bir butun fanni tashkil etadi. Lekin amaliy mashg'ulotlarning vazifasi nazariyadan olgan bilimlarni takrorlashdan iborat emas, aksincha, nazariyadan olgan bilimlarni amalga tatbiq etib, berilgan savol va topshiriqlarni mustaqil ravishda tahlil (analiz va sintez) qilib, kelajakda geografiya o'qituvchisi uchun zarur bo'lgan malaka va ko'nikmalarga ega bo'ladi. Umumiyl Yer bilimidan olib boriladigan amaliy ishlar jarayonida talabalar darslik va o'quv qo'llanmalari bilan cheklanib qolmasdan, qo'yidagi chizmada ko'rsatilgan geografik ma'lumotlar beruvchi manbalardan foydalanishlari maqsadga muvofiq bo'ladi (1-chizma) [2].

# "GEOGRAFIYA – KELESHEKKE KÓZ-QARAS"

atamasındağı Respublikalıq kólemdegi ilimiyy-teoriyalıq konferenciya



## 1-chizma. Umumi Yer bilimi fanidan amaliy mashg'ulotlarda foydalaniladigan manbalar

Bunda ayniqsa kartografik (topografik, maxsus mavzuli kartalar, atlas va globus), statistik (diagramma, jadval, har xil chizmalar), aerokosmik suratlar, vaqtli matbuot ma'lumotlari va boshqalardan foydalanish, mavzuga oid masala va mashqlar yechish amaliy ishni yanada puxta, yangiliklar bilan boyitgan holda o'tishga asos bo'ladi. Shuningdek, amaliy mashg'ulotlarni bevosita hayot bilan bog'lash, tabiat komplekslariga insonni ta'siri va undan kelib chiqadigan salbiy oqibatlariga alohida e'tibor berish kerak [5,7].

Talabalarga beriladigan topshiriq va savollar darslikdagi ma'lumotlarni mustahkamlashga qaratilgan bo'lishi kerak. Binobarin, talabalarga beriladigan topshiriq va savollarni puxta o'zlashtirishlari uchun quyidagilarga alohida e'tibor berishlari kerak:

# "GEOGRAFIYA – KELESHEKKE KÓZ-QARAS"

atamasındağı Respublikalıq kólemdegi ilimiyy-teoriyalıq konferenciya

1. Nazariyadan olgan bilimlarini yodga tushirish, mustahkamlash uchun har bir topshiriqni bajarishda va geografik tushunchalarni egallash jarayonida u yoki bu hodisa, nima uchun? qachon? qaerda? kabi savollarga javob topishlari kerak.
2. Ayrim topshiriq va savollar darslik, globus, mavzuli kartalar, atlaslar, rasmlar, kesmalar, jadvallar va chizmalar bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan bo'lishi kerak.
3. Ba'zi topshiriqlar tabiiy geografik hodisalarning o'zaro aloqalari sabab-oqibatlarini mustaqil ravishda olib berishga qaratilgan bo'lib, talabalar ularni isbotlashlari, nima uchun? qanday? nima sababdan? kabi savollarga javob izlashlariga yo'naltirilgan bo'lishi zarur.
4. Mavzuga mos ravishda topshiriq va savollar tabiiy geografik jarayonlarning sabab-oqibatini va bir-biriga aloqadorligini olib berishga qaratilgan bo'lishi kerak. Masalan, nima uchun Appalachi, Ural, Qozog'iston past tog'lari, Markaziy Qizilqumdag'i tog'lar kuchli yemirilgan va past? Nima sababdan Surxondaryo vodiysida subtropik landshaft vujudga kelgan? Nima uchun va qanday sabablarga ko'ra Atakama va Namib cho'liga joylashgan geografik o'niga ko'ra, Sharqiy Pomirga esa tog'li hudud bo'lishiga qaramay yog'in kam tushadi?

Barcha topshiriq va savollar talabalar tafakkurining rivojlanishiga, xotirasini chiniqtirishga, mustaqil xulosalar chiqarishga, tabiat komponentlarining bir-birlariga uzviy bog'liq ekanligiga haqida ilmiy xulosalar chiqaraishga undaydi va nazariyadan olingen bilimlarini mustahkamlashda juda katta ahamiyat kasb etadi. Talabalarning amaliy topshiriqlarni turli manbalardan foydalanib bajarish orqali egallahsg bilim va ko'nikmalar kelajakda o'zining pedagogik ish faoliyatida qo'l keladi[4,6].

Amaliy ishni bajarishda talabalar turli manbalardan foydalanadi, lekin ular ichida kartalarning tutgan o'rni beqiyosdir. Lekin, oliy o'quv yurti talabalari uchun geografik kartalar yo'qligi bo'lajak geografiya fani o'qituvchilarini geografik xaritalardan foydalanish ko'nikmalarini hosil qilish va rivojlantirishda qiyinchilik tug'diradi[. Ammo ushbu muammo yechimini topishda umumiyl o'rta ta'lim maktablari o'quvchilari uchun nashr etilgan o'quv atlashlari muhim ahamiyatga ega. Chunki ushbu atlaslarda, xususan mavzuli kartalarda u yoki bu mavzuga tegishli amaliy ishlarni bajarish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar olish imkoniyati mavjud (1-jadval).

# "GEOGRAFIYA – KELESHEKKE KÓZ-QARAS"

atamasındağı Respublikalıq kólemdegi ilimiyy-teoriyalıq konferenciya

1-jadval

## Karta yordamida mavzularga oid ma'lumotlar olish

Mavzuli karta nomi	Atlas ichida gi bet	Kartada nimalar (qanday ma'lumotlar) tasvirlangan	Qanday yo'l bilan	Qaysi mavzuda foydalananiladi
Yer po'stining tuzilishi	-	Tektonik strukturalar va ularning yoshlari, qazilma boyliklar	Rangi, shartli belgilari	Geologik tuzilishida, relyefida, qazilma boyligida
Tabiiy karta	-	Relyef shakllari, ularning past-balandliklari, eng baland va eng past nuqtalar	Rangi va shartli belgilari	Relyef, relyef hosil qilivchi omillar: Tog'lar va tekisliklar (Yevrosoyo, Afrika, Shimoliy Amerika, Janubiy Amerika, Antarktida, Avstraliya); Dunyo okeani (Tinch, Atlantika, Hind, Shimoliy Muz okeani); Tabiat zonalari; Balandlik mintaqalari
Iqlim va iqlim mintaqalari kartasi	-	Dunyo iqlimi, havo harorati, o'rtacha yillik yog'in miqdori, shamollar yo'nalishlari, iqlim mintaqalari va o'lkalari	Rangi va shartli belgilari	Ob-havo va iqlim; Issiqlik va iqlim mintaqalari; Tabiat zonalari; Landshaftlar; Balandlik mintaqalari
Tabiat zonalari	-	Iqlim mintaqalarida tarqalgan tabiat zonalaring turlari, tabiat zonalariga xos bo'lgan tuproq, o'simlik va hayvonot dunyosi	Rangi va shartli belgilari	Tabiat zonalari; Landshaftlar; Balandlik mintaqalari; Inson-ning geografik jarayonlarga ta'siri; Geografik bashorat

Binobarin, buning uchun talabalarda kartalarni o'qish malakasini shakllantirish lozim bo'ladi, shunda ular karta legendasi yordamida u yoki bu mavzuga oid tegishli ma'lumotlarni olish ko'nikmalariga ega bo'ladilar.

Yuqoridaqilardan ko'rinish turibdiki, bo'lajak geografiya o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda Umumiyl Yer bilimidan tashkil etiladigan amaliy mashg'ulotlarning ahamiyati katta. Bu albatta oliy o'quv yurti professor-o'qituvchilariga ham, talabalarga ham amaliy mashg'ulotlarni zamon talabi darajasida tashkil etish, o'z ustida tinmay ishslash, yuksak pedagogik mahorat kabi ma'suliyatni yuklaydi.

# "GEOGRAFIYA – KELESHEKKE KÓZ-QARAS"

atamasındağı Respublikalıq kólemdegi ilmiy-teoriyalıq konferenciya

## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Baratov P., Sultanova N. Umumiy Yer bilimi.O‘quv qo‘llanma. – T.:Info kapital group, 2018. – 414 b.
2. Sultanova N.B. Umumiy Yer bilimi (amaliy mashg‘ulotlar). Darslik. T.: “Bookmany print”, 2023, –282 b.
3. Vaxobov X., Alimqulov N.R., Sultanova N.B. Geografiya o‘qitish metodikasi. T: “Nodirabegim”, 2021. –
4. Иноятов У. Замонавий шароитда педагог кадрлар тайёрлаш: муаммо ва вазифалар. – Т. : “Педагогик таълим” журнали, 2012 йил. (2-сон), – В.17-20.
5. Sultanova N.B. Uzluksiz ta‘lim tizimida amaliy mashg‘ulotlarda “Case-Study” texnologiyasidan foydalanish. Uzluksiz ta‘lim. Ilmiy-uslubiy jurnal, Toshkent. 2023, №6, - В.69-73.
6. Тожибаева Д., Йўлдошев А. Maxsus фанларни ўқитиш методикаси. Т.: “Алоқачи” 2004. –182 б.
7. Sultanova N.B. «Umumiy Yer bilimi» darslarida talabalarning o‘quv faoliyatini tashkil etishda amaliy mashg‘ulotlarning roli // “Geografiya fani va raqamli iqtisodiyot” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Namangan, 2023 yil, 12-13-oktabr. – B. 387-391.

